– Yaqinda Lotin Amerikasining ikki yirik mamlakatida xizmat safarida bo'ldim, – degan edi o'shanda Q. Sanaqulov. – Tabiiyki, ushbu mamlakatlarning konchilik sanoati tarixi bilan ham qiziqdiki. Bizga taqdim etilgan ma'lumotlar besh yuz yillik o'tmish bilan chegaralanganini ko'rib hayron qoldik. Vaholanki, arxeologik topilmalar hindular ham bu sohada boy tarixiy tajribaga ega bo'lishganidan guvohlik beradi.

Qissadan hissa shuki, bizning konchilik sohasidagi ming yillik tajribamiz ham mustaqillikka qadar hindularniki kabi tarixning sarg'aygan varaqlari orasiga yashirilgan edi. Birgina misol: Beruniy bobomizning “Mineralogiya” asari o'n to'rtinchi asrdayoq Yevropa mamlakatlari xalqlari tiliga o'girilgan bo'lsa-da, oradan qancha asrlar o'tib – 2019-yilda uni xalqimiz o'z ona tilida o'qish imkoniga ega bo'ldi.

Bunday misollarni esa ko'plab keltirish mumkin.

Oqqan daryo oqaveradi...

Ma'lumotlarda aytilishicha, Qizilqum bag'rida Mendelev davriy jadvalidagi barcha elementlar jamlangan. Biroq mazkur boy xomashyo resurslaridan yaqin-yaqinlarga qadar faqat oltin va urangina qazib olingan. Oddiy kun, tosh va tuproqdan ham mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim mahsulot ishlab chiqarish mumkinligi esa qizilqumliklarning yetti uxlav tushiga ham kirmagan. Xususan, hududning oyna ishlab chiqarishdagi asosiy xomashyo – kvarts qumi, ohaktosh va dolomitga boyligi Zarafshon shahrida istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga yo'l ochdi.

– Davlatimiz rahbari viloyatimizga 2018-yilgi tashrifi chog'ida oyna ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, bunda korxonani zamonaviy uskunalar bilan jihozlash vazifalarini qo'ygan edi, – deydi “Zarafshon oyna” MCHJ ta'sischisi Bahodir Yusupov. – Shu asosda 250 million AQSH dollari

miqdorida mablag' yo'naltirilib, Germaniya, Fransiya va Italiya davlatlaridan eng so'nggi avlod uskunalar keltirildi. Natijada xomashyo qazib olishdan tortib tayyor mahsulot holiga keltirishgacha bo'lgan sikl o'zlashtirilib, “M0”, “M1” rumumdagi oynalar ishlab chiqarilmoqda. Aytish joizki, ushbu rumumdagi mahsulotni hamma zavod ham ishlab chiqara olmaydi. Ular sanoqi va bu safda borligimiz bizga faxr bag'ishlaydi. Mahsulotimiz sifatiga yana bir dalil shuki, quvvat yiliga 12 million metr kvadrat bo'lgani holda Yevropa mamlakatlaridan 18 million metr kvadratga talabgor bor. Lekin biz ichki bozor talabidan kelib chiqib, ishlab chiqargan mahsulotimizning 50 foizini import o'rini bosishga yo'naltirmoqchimiz.

Korxonada shisha ishlab chiqarish jarayoni – eritish, qoliplash, sovitish texnologik liniyalariga o'rnatilgan nazorat hamda boshqaruv tizimi to'liq avtomatlashtirilgan. Shunga qaramasdan uning kon va sexlaridan 700 nafar zarafshonlik o'z ish o'rinlariga ega bo'lishdi.

Iqtisodiyotdagi shu kabi differensial yondashuvlar tufayli viloyatdagi yirik korxonalar bilan kichik biznes subyektlari o'rtasidagi kooperatsiya aloqalari mustahkamlanib, tadbirkorlik subyektlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Natijada kichik biznes subyektlari soni 2017-yildagiga nisbatan 3 barobar oshib, bugungi kunda 27047 tani tashkil etmoqda.

“Yashil” iqtisodiyotga keng yo'l

Bugun mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmida navoiyliklar 16,4 foizlik ulushga ega. Sementning 15,3 foizi, kimyo sanoati mahsulotlarining 20 foizi, elektr energiyasining 13,3 foizi aynan Navoiy viloyatidagi yirik sanoat quvvatlaridan xorij va mahalliy iste'molchilarga tarqatiladi.

So'nggi besh yilda “Navoiy konmetallurgiya kombinati”, “Navoiyazot”, “Qizilqumsement”, “Navoiy issiqlik stansiyasi” aksiyadorlik jamiyatlari, “Navoiyuran” DK, “Akfa Extrusions” MCHJ kabi yirik sanoat quvvatlari yoniga “Navpromlittmash”, “Gidro stanko servis”, “Zarafshon oyna”, Karmanada fotoelektr, Tomdida shamol elektr stansiyalari kabi o'nlab yirik korxonalar qo'shilib, o'lis-yaqin hududlarda no'an'anaviy ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ularda yiliga umumiy qiymati 124,3 trilion so'mdan ziyod sanoat mahsulotlari tayyorlanmoqda.

Shulardan biri – Tomdi tumanida o'tgan yil oxirida ishga tushirilgan shamol elektr stansiyasining ikkinchi navbati viloyatda “yil qilishi” deya e'tirof etildi. Ushbu stansiya 2023-yilning dekabr oyida ishga tushirilgan dastlabki 100 MVtlik quvvati yordamida o'tgan yili 32 million kVt-soatga yaqin elektr energiyasi ishlab chiqardi. Bu qariyb 156 ming xonadonning bir oylik elektr energiyasi iste'moliga teng demakdir. Samaradorligiga kelsak, 9,4 million kubomet gaz tejallishga erishilib, atmosferaga 13 ming tonna zararli gazlar chiqishining oldi olindi.

Stansiyaning ikkinchi bosqichini bunyod etish ishlari misli ko'rimagan qisqa muddatda amalga oshirildi. Xitoyning “Goldwind” kompaniyasida ishlab chiqarilgan har biri 4,7 MVt quvvat, 97 metr balandlikka ega turbinalar, 77 metrik shamol parraklarini tashib keltirishning o'zi anchagina murakkab jarayonligini inobatga olsak, uning alohida e'tirof etilishida mubolag'a yo'q. Natijada o'tgan yilning 13-dekabrda har birining quvvati 4,7 MVtdan (umumiy quvvati 500 MVt) bo'lgan 111 ta shamol turbinasi o'rista aylanib, mamlakat energiya tarmog'i yana qo'shimcha 400 MVt quvvatni ola boshladi.

– Loyihani to'liq ishga tushirish natijasida 1752 million kVt-soat yoki qariyb 730 ming xonadonning bir yillik iste'moliga teng “yashil” energiya ishlab chiqarilmoqda, – deydi Tomdi tumani hokimining investitsiyalar, sanoat va savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari Sardor Eshnazarov. – Bu mamlakatimiz iqtisodiyotiga 531 million kubometr tabiiy gazni tejatga, 736 ming tonna zararli moddalar atmosferaga chiqarilishining oldini olish imkoniyatini taqdim etdi.



Inson kapitaliga sarmoya

Ayonki, taraqqiyot tarixi uning uch omiliga bog'liqligini ko'rsatadi. Ya'ni har qanday mamlakatda ishchi kuchi va tabiiy resurslar rivojlanishning 40 foizga yaqinini ta'minlash, qolgan oltmish foizi bevosita intellektual salohiyatga bog'liq. Shubhasiz, iqtisodiy o'sishdagi barqarorlik aholi farovonligining oshishi va hududlarda ijtimoiy infratuzilma ravnaqiga imkon yaratadi.

Bugun viloyatning qaysi hududiga yo'l olmag, albatta, katta-kichik bunyodkorlik va qurilish jarayonlarining ustidan chiqas. Xususan, so'nggi yillarda hududda 327 ta umumta'lim maktabi, 154 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 173 ta sog'liqni saqlash obyekti, 27 ta sport kompleksi yangidan



qabul qilinmoqda. Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2019-yildagi tashrifi chog'idagi topshiriq'iga asosan Tomdi tumanida chet tillarini bepul o'rgatishga ixtisoslashtirilgan Tomdi til markazining yo'lga qo'yilishi tufayli olis hudud yoshlari xorijiy tillarni bepul o'rganish imkoniga ega bo'ldi.

Prezidentimizning 2024-yil 12-dekabrda “Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori bilan hududda mustahkam kadrlar zaxirasini yaratish borasida belgilangan vazifalar ta'lim sohasida muloqot yangi sahifa ochdi. Qarorga ko'ra Navoiy viloyati hokimligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Strategik islohotlar agentligi bilan birgalikda 2025/2026 o'quv yilidan boshlab Navoiy davlat universitetida viloyatda ehtiyoj


“Bugun mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmida navoiyliklar 16,4 foizlik ulushga ega. Sementning 15,3 foizi, kimyo sanoati mahsulotlarining 20 foizi, elektr energiyasining 13,3 foizi aynan Navoiy viloyatidagi yirik sanoat quvvatlaridan xorij va mahalliy iste'molchilarga tarqatiladi.”

qurilib va kapital rekonstruksiyadan chiqarilganligi, 293 ta ko'p qavatli uy-joy qad rostlab, 17 904 ta oila o'z yashash sharoitini yaxshilaganligi fikrimizning yaqqol tasdig'i. Natijada viloyat bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalari soni 11 barobarga ortib, ularning qamrab olish ko'rsatkichi 34 foizdan 85 foizga yetkazildi. Umumiy o'rta ta'limda 2023/2024 o'quv yilida viloyatdagi 365 ta maktabni tugallagan 11 ming 662 yigit-qizning 8 ming 223 nafari (70,6 foiz) oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilindi. Bu respublikadagi eng yuqori ko'rsatkich.

– Ta'lim sohasiga yuksak e'tibor bu yutuqlarning muhim omili hisoblanadi, – deydi viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Ra'no Hayitova, – Xususan, viloyatimizda Qorako'l xalqaro matematika maktab-internati filiali hamda Beruniy nomidagi davlat-xususiy sheriklik maktabining tashkil etilishi, pedagoglar mehnatining munosib rag'batlantirilishi sohada sog'lom raqobat muhitini yaratdi. Bu nafaqat markaz, balki olis hududlarda ham o'z samarasini bermoqda. Chunonchi, Xatirchi tumanining Tamabaxrin mahallasidagi maktab o'zining oliy ta'limga o'quvchilarni tayyorlash tajribasi bilan mashhur bo'lib, bu yerda bitiruvchilarning 90 – 95 foizi oliy ta'lim muassasasiga o'qishga

yuqori bo'lgan iqtisodiyot, biznes va turizm, investitsiyalarni boshqarish, qishloq xo'jaligi, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, logistika kabi yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilishini inobatga olib, dars mashg'ulotlariga xorijdan malakali mutaxassislarni jalb etish, Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda Xitoyning qishloq xo'jaligi sohasidagi yetakchi universitetlari bilan Navoiy davlat universitetida qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil qilish belgilangan.

– Shuningdek, qarorda viloyat markazidan olisda joylashgan Zarafshon shahri, Uchquduq va Tomdi tumanlaridagi qariyb 150 ming aholining o'ziga yaqin hududda oliy ta'lim olishi uchun sharoit yaratish, o'qitish va ishlab chiqarish jarayonlarining uzviylikni ta'minlash maqsadida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Zarafshon fakultetlarini, shuningdek, Navoiy shahrida 10 ta yo'nalishda ta'lim beruvchi zamonaviy Sharq universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkilotini ochish bo'yicha takliflarni o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqib, tegishli qaror qabul qilish vazifalari belgilangan, – deydi Fanlar akademiyasi Navoiy viloyati bo'limi raisi Abdurazzoq Mirzayev. – Ushbu vazifalar ijrosi konchilik ishlari



ilmiy asosda taraqqiy etishiga, sohada raqamlashtirishning rivojlanishiga kuchli turtki berishi, shubhasiz.

Hayotbaxsh loyihalar – har birimizning hayotimizda

Biz bugun mamlakatimiz sanoatining drayveri – Navoiy viloyati misolida konchilik tarixi hamda uning bugungi energetik infratizimini zamon talabi prizmasidan o'tkazdik. Haqiqatan ham, bugungi globalashuv shiddati ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali tashqi bozor geografiasini kengaytirishni talab etmoqda. Mamlakatimiz rahbari Navoiy viloyatiga o'tgan yili amalga oshirgan tashrifida bu borada hududning imkoniyatlarini baholab, ulardan foydalanish bugungi kun talabiga javob bermasligini ta'kidladi. Har bir imkoniyatdan samarali foydalanishning ustuvor vazifalarini belgilab berdi. Ular yuqorida aytib o'tilgan Prezident qarorida o'z ifodasini topgan.

– O'ttiz olti banddan iborat ushbu qarorda Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish, tadbirkorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, har bir tuman va shaharni ixtisoslashtirilganligidan kelib chiqib rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish va turmush darajasini yanada yaxshilashning ustuvor vazifalari belgilab berilgan, – deydi xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Normurod Isoqov. – Har bir bandedgi vazifalarning ijrosi bo'yicha mas'uliyat, manba va kutilayotgan samaralar aniq ifodasini topgan.

Qarorda hududning boy qadimiy merosi va tabiiy iqlim sharoitidan samarali foydalanilgan holda qo'shimcha qimmat va ish o'rinlari yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Turizm qo'mitasi va Navoiy viloyati hokimligi Aydarko'l suv havzasi atrofida 150 gektar hududda “O'zmilliyyabank” AJ bilan birgalikda nufuzli loyiha kompaniyalari ishtirokida master-reja ishlab chiqqan holda 2025-2026-yillarda oyiga 10 ming nafargacha xorijiy va mahalliy sayyohlarga zamonaviy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan mehmonxona, dam olish va ko'ngilochar maskanlar barpo etish loyihalarini amalga oshirish belgilangan.

200 nafar aholi bandligini ta'minlash, Nurota tumanining Sentob va Chuya, Xatirchi tumanining Langan va Angidon qishloqlarini turizm qishloqlari sifatida rivojlantirib, bu yerlarda 2025-yilda 50 ta yangi oilaviy mehmon uyi tashkil etish ko'zda tutilgan. 500 ming nafar mahalliy, 80 ming nafar xorijiy sayyohlarni jalb qilish choralarini ko'rish, Zarafshon shahridagi Marvard ko'li atrofida “Asakabank” ATB bilan birgalikda xorijiy mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan master-reja asosida dor yo'li, suzish havzasi, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari barpo etib, tadbirkorlarga tayyor holatda lotlarga bo'lgan holda lizingga berish va 1000 nafar aholi bandligini ta'minlash vazifalari belgilangan. Bu bilan Qizilqum va tog'oldi hududlariga ham yangi xizmat ko'rsatish sohasining kirib borishiga yo'l ochiladi.

Ayni chog'da turizm yo'nalishida an'anaviy sayyohlik maskanlarining mamlakatimiz turizm yo'nalishlariga

integratsiya qilinishining qarorda o'z aksini topganligi hududda turizm oqimining oshishiga chinakam shiddat beradi. Xususan, Samarqand va Buxoro viloyatlari hokimliklari bilan birga shu yil 1-iyulga qadar Nurota tumanidagi “Chashma” ziyoratgohini Samarqand viloyatidagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi va Buxoro viloyatidagi “Yetti pir” ziyoratgohlari bilan bog'lagan holda “Turizm halqasi” dasturini ishlab chiqish tadbirlari hamda Muruntov koni atrofida va shamol elektr stansiyalari joylashtirilgan hududda sanoat turizmi yo'nalishidagi loyihalarni ishga tushirish to'g'risidagi takliflarga rozilik berilganligi hududning sayyohlik jozibadorligini oshirib, bu yo'nalishda xorij tajribasi omallashishiga zamin yaratadi.

O'ziga qaytayotgan Navoiy

Mamlakatimiz rahbari o'z tashrifida Navoiy viloyatida 2025-yilni “Alisher Navoiy yili” deb atash, ulug' mutafakkir shoir asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarining ijrosi hududda ta'minlanishiga erishish, shu yo'lga keng ko'lami tadbirlarni amalga oshirish taklifini ilgari surdi.

Shu munosabat bilan “Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili”ni yuqori darajada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Unga asosan 8-9-fevral kunlari mutafakkir shoir tavalludining 584-yilligi munosabati bilan “Alisher Navoiy va Sharq Renessansi” an'anaviy IV xalqaro simpoziumi va navoiyxonlik tadbirlari yuqori saviyada o'tkazilib, Hazratning muazzam haykali poyi chet ellik hamda yurtimizning tanilqi navoiyshunos olimlari, yozuvchi va shoirlar, jamoat arboblari tomonidan gullarga burkandi.

Chindan-da, viloyatimizning Navoiy nomi bilan atalishi yuksak sharaf ekanligi bilan birga, ulkan mas'uliyat hamdir. Prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridayoq hazrat Navoiy ijodi va faoliyatini o'rganishda boshqalarga navoiyliklar o'rnak bo'lishi zarurligini uqtirgan mamlakatimiz rahbari o'z qarorida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Navoiy viloyatining barcha shahar va tumanlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq holda so'lim bog' va xiyobonlar, yashil hududlar tashkil qilish, Navoiy shahrida barpo etilayotgan “Yangi O'zbekiston” bog'ida ulug' shoir haykali va “Xamsa” dostonlari mavzuidagi ramziy darvozalarni o'rnatish hamda memorial muzey ochish choralarini ko'rish vazifasi qo'yilgan. Har yili alohida reja asosida ijodiy kechalar, tanlovlar, kitoblarni nashri va taqdimoti, ilmiy-adabiy anjumanlar o'tkazish, bu tadbirlarga talabalar, yosh ijodkorlar va iqtidorli o'quvchilarni jalb qilish, ularni munosib rag'batlantirish orqali Navoiy viloyati tajribasini omallashtirish aytilgan. Bular ijrosi barchamizga ulkan mas'uliyat yuklab, Hazrat o'z ijodida tarannum etgan “Xalq g'ami”ni o'z faoliyatida ustuvor tutmoq g'oyalarga hamohangdir.

Ta'kidlanganidek, ushbu maqolada hudud taraqqiyotiga turtki bergan hodisa – konchilik sanoatining o'tmish va bugungi kun voqeligidagi bir qismi va uning atrofida evrilishlariga to'xtaldik. Hatto, konchilikning “NKMK”, “Navoiy uran”, kimyo sanoatining “Navoiyazot”, qurilish materiallari tarmog'ining “Qizilqumsement”, energetikaning “Navoiy issiqlik elektr stansiyasi” kabi korxonalarida amalga oshirilgan milliard-milliard dollarlik investitsiyaviy loyihalarga to'xtalmadik. Nafaqat viloyat, balki mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutayotgan “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi, Navoiy logistika markazi, yo'l qurilishi, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi kabi sohalaridagi islohotlar, aholining bugungi kundan roziligi va ertangi kunga mustahkam ishonchi alohida mavzu. Asosiysi, bu ishonch ulkan marralar sari qanot bo'lmoqda.

Temur ESHBOYEV
 (“Xalq so'zi”).



TIBBIYOT:
INNOVATSION YONDASHUV VA INTEGRATSIYA

Ammo, tan olish kerak, tibbiyot ta'limi bugungi kunda bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda. Bugungi talabga mos ta'lim standartlarining yo'qligi, bilim hamda ko'nikmalarni baholovchi shaffof tizimning shakllanmagani, amaliyot va nazariya o'rtasidagi uzviy aloqaning yetishmasligi natijasida bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligida jiddiy nomutanosibliklar yuzaga kelmoqda. Bu holat nafaqat tibbiy xizmat sifatini pasaytiradi, balki aholi salomatligi, sog'lom turmush tarzi va iqtisodiy barqarorlikni ham xavf ostiga qo'yadi.

Shuning uchun tibbiyot ta'limini innovatsion yondashuvlar bilan rivojlantirish, raqamlashtirish va klinik amaliyotga integratsiya qilish, xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda modul asosida ta'lim standartlarini yangilash, talabalarining real amaliyot bilan bog'lanishiga sharoit yaratish, "Ustoz – shogird" tizimini qayta joriy etish va eng muhimi, inson kapitalini sifat jihatdan kuchaytirishga bugungi kunning ustuvor vazifasi sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Boshqacha aytganda, davlat tomonidan berilgan keng ko'lami imkoniyatlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash faqat infratuzilmaviy emas, intellektual salohiyatni yangilash vositasiga aylanishi lozim. Agar ushbu imkoniyatlardan oqilona, strategik va tizimli foydalanilsa, yurtimiz tibbiyot tizimi nafaqat milliy ehtiyojlarga, balki xalqaro standartlarga ham moslashgan, raqobatbardosh, inson qadriini eng ustuvor mezon sifatida qo'llagan samarali modelga aylanishi muqarrar.

Yana bir masala, bu raqamlashtirishni strategik boshqaruv vositasi sifatida joriy etish zarurligi. Masalan, tez tibbiy yordam xizmatlari bo'yicha chaqiruvlarning 25 foizini surunkali xastaligi bo'ri fuqarolar tashkil qilayotgani aniq tahlil etildi. Ba'zi hududlarda esa shoshilinch yordam mashinalari poliklinika



vazifasini bajarayotgani achinarlidir. Bu esa tibbiyot muassasalaridagi kadrlar hamda mablag'larning noto'g'ri taqsimlanishi natijasi sifatida baholandi. Mamlakatimizda tibbiy sug'urta tizimi hanuz to'liq shakllanmagan va aholi bu tizim foydasini to'liq anglab yetgani yo'q. Prezident bu masala yuzasidan alohida fikr bildirib, mazkur tizimni amalga oshirish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish zarurligini belgilab berdi.

Yig'ilishda sohaga oid yangicha yondashuvlar belgilanib, kasalliklarni oldindan bartaraf etish, tibbiyot xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish, aholining tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Alohida zikr etilgan yana bir og'riqli muammo, bu – bolalar onkogematologiyasi. Afsuski, bu sohadagi statistik ma'lumotlar juda xavotirli: bunday kasalliklarning 75 foiziga oxirgi, ya'ni kech aniqlanish bosqichlarida tashxis qo'yilmoqda. Bu esa nafaqat davolash samaradorligini pasaytiradi, balki bola hayoti uchun jiddiy xavf tug'diradi. Shu bois davlat rahbari tashabbusi bilan onkologiyada bo'lgani kabi bolalar saraton kasalliklariga qarshi besh yillik milliy dasturni ishlab chiqish bo'yicha topshiriq berildi. Mazkur dasturni moliyalashtirish uchun kamida 110 mln. dollar mablag' ajratilishi rejalashtirilgan.

Tibbiyotdagi navbatdagi muammo esa dori vositalaridan noto'g'ri va samarasiz foydalanish, xususan, dalillarga asoslangan tibbiyot

prinsiplarining to'liq joriy etilmaganligi bilan bog'liq. Rivojlangan davlatlarda tibbiy amaliyot klinik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan, xavfsiz va samarali dori vositalari orqali amalga oshiriladi. Ammo yurtimizda dori vositalarining 42 foizi samaradorligi klinik jihatdan tasdiqlanmagan turlar hisoblanadi. Shu bois haligacha ayrim shifokorlar tomonidan tavsiya etilayotgan samarasiz yoki xavfsizligi noma'lum bo'lgan dori vositalari aholi orasida

Ta'kidlash joizki, sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar nafaqat tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini, balki sohadagi ta'lim sifati va kadrlar salohiyatini tubdan takomillashtirishni ham talab etmoqda. Yig'ilishda ushbu masala alohida e'tibor markazida bo'ldi. Davlat rahbari aytganidek, sifatli kadrlarsiz tibbiyotdagi har qanday moliyalashtirish va infratuzilma islohotlari o'zini

qolmoqda.

Shu maqsadda davlat rahbari tashabbusi bilan Tibbiyot sohasini baholash milliy markazini tashkil etish vazifasi belgilandi. Ushbu markaz nafaqat tibbiyot oliygozlari va texnikum bitiruvchilarining bilim-ko'nikmalarini zamonaviy diagnostika hamda davolash standartlari asosida baholaydi, balki ishlab yurgan shifokor va hamshiralarning malaka darajasini ham to'liq qayta baholashga mas'ul bo'ladi. Bu sohadagi kadrlarning bilim salohiyatini real baholash, o'z vaqtida qayta tayyorlash orqali sifatni kafolatlashga xizmat qiladi.

Darvoqe, davlat va xususiy tibbiy muassasalar ham endi akkreditatsiya jarayonidan o'tadi. Bu orqali barcha tibbiyot subyektlarining faoliyati belgilangan milliy standartlar va tibbiy etika mezonlari asosida baholanadi. Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish vazifasi esa oliy ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari va viloyat tibbiyot muassasalari o'rtasida taqsimlanadi. Bu tizim markazlashuvdan chiqib, hududiy mustaqillik hamda amaliyotga yaqinlashish tamoyillariga asoslanadi.

Yangi tizimning yana bir muhim jihati – dual ta'lim modelini to'liq joriy etish. Ya'ni klinikalar to'g'ridan-to'g'ri tibbiyot oliygozlari tasarrufiga o'tkazilib, ularga moliyaviy mustaqillik beriladi. Bu ta'lim va amaliyot uyg'unligini ta'minlaydi, talabalarni bozor talablariga mos holda tayyorlash, real hayot sharoitidagi muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

Umuman, tibbiyot ta'limida sifati kafolatlangan, jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan kadrlar tayyorlash – milliy sog'liqni saqlash tizimining barqaror va raqobatbardosh kelajigini belgilaydi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolida, aholining hayot sifati va davlatning ijtimoiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuhrat BOYMURODOV,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori.

HAR BIR QADAM MANGULIKKA DAXLDOR

Tinchlikning qadriga yetish, asrash – muqaddas burch. Xotira esa ana shu oliy ne'mat uchun kurashgan, yoshligi, umrini Vatan himoyasi uchun baxshida etgan yurt o'g'lonlarini yodga olishdir.

Aks sado

Har gal Ikkinchi jahon urushi yoki mustaqillik yillarida yurtimiz sarhadlarini qo'riqlash uchun jonini fido etgan yurtdoshlarimiz haqida gap ketganda, farzandini urushga kuzatib to'n tishlatib qolgan onalar, shahid ketgan o'g'lining omon qaytishiga umrining so'nggi kunigacha ishonib, darvozadan ko'zini uzmay so'nggi nafasigacha yo'l qaragan bobo-buvilar, chimidilgi yig'ilmay qolgan kelinchaklar, ota didoriga zor go'daklar ko'z o'ngimizda gavdalanadi. "Hamma narsa front uchun", deb kunu tun ter to'kkan, jo'jabirday jon bo'shida, urush kechayotgan hududlardan evakuatsiya qilingan boshqa millat vakillarining 250 ming bolasini o'z farzandidek bag'riga olgan yurtdoshlarimiz va yurt sarhadlarida jon bergan alp o'g'lonlarimiz

ko'z o'ngimizdan o'tadi.

Bu yil ham 9-may arafasida urush faxriylari, front o'ldiri mehnat qilgan yurtdoshlarimizga alohida hurmat-e'tibor ko'rsatildi. Yuz bilan yuzlashgan, bir asrdan ziyod umrguzaronlik baxtiga erishgan bobolarimizdan yurtimizda tinchlik barqaror, xalqimizning hayoti yanada farovon bo'lishi uchun duolar olindi.

"Ikkinchi jahon urushida qozoniigan g'alabaniing 80 yilligi hamda Xotira va Qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va munosib nishonlash to'g'risida"gi Prezident qaroriga asosan, bu yilgi bayram "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi" shiori ostida o'tkazildi. Bunda Vatan tinchligi, taraqqiyoti yo'lidagi har bir ezuq qadam mangulikka daxldor, u hech qachon unutilmaydi, degan fikr mujassam. Shu ma'noda Prezidentimiz tashabbusi bilan "Millat fidoyilari" xiyobonining

bunyod qilinishi mamlakatimizda inson qadri ulug' ekanligini yana bir bor amalda namoyon etdi.

Ushbu xiyobon mustaqillik yillarida mamlakatimiz himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining xotirasiga uchun barpo etildi. Mazkur xiyobon yoshidan, kasbidan qat'i nazar, insonga katta ma'naviy saboq beradi.

Bu yerda bo'lganingizda "Vatan senga nima qilib berganligini so'rama, oldin o'zingdan, sen o'zing Vatanga nima qilib berganligini so'ra", degan savolni o'zingizga qayta-qayta beraverasiz. Yuragingizda ona Vatanni himoya etish, har tomonlama mustahkam va qudratli bo'lishga hissa qo'shish niyati, vatanparvarlik tuyg'usi jo'sh uradi. Zero, bu ulug' tuyg'u hayotimizning asosi. Chunki vatanparvarliksiz bunyodkorlik ham, taraqqiyot ham bo'lmaydi.

Komila KAROMOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi Qashqadaryo viloyati bo'limi
rahbari, senator.

REKLAMA

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI
BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI

quyidagi kafedralar bo'yicha lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

- Estrada xonandaligi kafedrası — dotsent (2), professor (1);
- Estrada cholg'ularida ijrochilik kafedrası — katta o'qituvchi (1), dotsent (2);
- Estrada ijrochiligi pedagoglari tayyorlash kafedrası — dotsent (1);
- Kompozitorlik va aranjirovka kafedrası — dotsent (1);
- Musiqiy nazariy va tarixiy fanlar kafedrası — katta o'qituvchi (2);
- Estrada orkestri dirijyorligi kafedrası — katta o'qituvchi (1);
- Musiqiy ovoz rejissyorligi kafedrası — kafedra mudiri;
- Fakultetlararo fortepiano ijrochiligi kafedrası — o'qituvchi (1), katta o'qituvchi (1);
- O'zbek tili, sport va ijtimoiy fanlar kafedrası — o'qituvchi (1), katta o'qituvchi (1).

Tanlovda ishtirok etish uchun da'vogarlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- rektor nomiga ariza;
- xodimlar shaxsiy varaqasi;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarning nusxalari;
- o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari ro'yxati;
- mutaxassislik bo'yicha oxirgi uch o'quv yilida malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma va sertifikatlar nusxasi.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutining xodimlar bo'limi tomonidan qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Shayxuntohur tumani, Botir Zokirov ko'chasi, 1-uy. O'ZDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti.

Telefonlar: 97-139-35-25, 90-823-31-80.

Tahririyat pochtasidan

HUQUQBUZARLARGA
CHORA KO'RILDI

"Xalq so'zi" gazetasi shu yil 2-aprel kungi 67-sonida chop etilgan "Egasiz qolgan o'rmon yerlari talon-toroj qilinmoqda" sarlavhali maqola yuzasidan Qashqadaryo viloyati hokimligidan javob xati oldik.



Eslatib o'tamiz, bir guruh fuqarolar murojaatlari asosida tayyorlangan mazkur maqolada muxbirimiz Jahongir Boymurodov Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala tumanida "Qumdaryo" davlat o'rmon xo'jaligiga tegishli bo'lgan yerlar noqonuniy egallab olinayotgani va uy-joylar barpo etilayotgani haqida aytilgan edi.

5-may kuni tahririyatga yo'llangan xatda viloyat hokimi o'rinbosari M. Azizov Kadastr agentligining Qashqadaryo viloyati boshqarmasi Ko'kdala tumani bo'limi tomonidan "Qumdaryo" davlat o'rmon xo'jaligiga ajratilgan yer maydonlarida xatlov ishlari amalga oshirilganini ma'lum qilgan.

Xatda aytilishicha, o'rganish davomida "Qumdaryo" davlat o'rmon xo'jaligiga tegishli 77,5 gektar yer maydoni 72 nafar fuqaro tomonidan o'zboshimchalik bilan egallanib, qurilish ishlari amalga oshirilgani va noqonuniy ravishda foydalanib kelinayotgani aniqlangan.

Jumladan, 69 nafar fuqaro tomonidan jami 34 gektar yer maydonida noqonuniy ravishda uy-joy va boshqa yordamchi binolar qurilgan. Ularga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 60-moddasi 3-qismiga asosan jarima jazosi qo'llanib, fuqarolik ishlari bo'yicha Chiroqchi tumanlararo sudi tomonidan qanoatlantirilgan.

Shuningdek, 3 nafar fuqaro tomonidan 43,5 gektar yer maydoni o'zboshimchalik bilan egallab olindi, turi qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirib kelingani aniqlangan. Shundan 3,5 gektar yer maydonidan tomorqa sifatida foydalanib kelgan 2 nafar fuqaroga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 60-moddasi 2-qismiga asosan jarima jazosi qo'llanib, fuqarolik ishlari bo'yicha Chiroqchi tumanlararo sudi tomonidan qanoatlantirilgan. Bir nafar fuqaro esa 40 gektar yer maydonini noqonuniy egallash yo'li bilan sodir etgan huquqbuzarligini ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan.

"Xalq so'zi".

Shaxmat: yoshlarimiz
turnirda 1-o'rinni
qo'lga kiritdi

Qozog'istonda 8 – 14 yoshli bolalar o'rtasida "Aralbay Muhambetov – 2025" xotira musobaqasi tashkil etildi.

Mazkur bellashuvda O'zbekiston terma jamoasi yakuniy hisobda 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Shveysariya tizimi asosida standart yo'nalishda o'tkazilgan 9 turlik musobaqa yakunlariga ko'ra mamlakatimiz vakili Jahongir Nasimov 8 yoshgacha bo'lganlar toifasida 1-o'rinni egallab, reytingiga 60 ochko qo'shib oldi.

Bundan tashqari, Abdulboriy Abduvaliyev 14 yoshgacha bo'lganlar orasida 2-o'rinni, Nilufar Mahmudova 12 yoshgacha, Nigina Xudoyberdiyeva esa 18 yoshgacha bo'lgan qizlar toifasida 3-o'rinni band etdi.

Taekvondo WT:
Sultonbek Nabiyeu –
champion!

Ayni kunlarda BAAning Fujayra shahri taekvondo WT bo'yicha kadetlar o'rtasidagi jahon chempionatiga mezbonlik qilmoqda.



Musobaqaning ilk kunida hamyurtimiz Sultonbek Nabiyeu 37 kilogrammgacha vazn toifasida kechgan baharlarda barcha raqibini mag'lub etib, jahon chempioni bo'ldi.

Eslatib o'tamiz, iqtidorli hamyurtimiz final jangida serbiyalik raqibidan ustun keldi.

Baydarka va kanoeda
eshkak eshish:
O'zbekiston terma
jamoasida 6 ta medal

8 – 10-may kunlari Xitoyning Nanchang shahrida baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha Osiyo chempionati musobaqalari bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston terma jamoasi uchtdan kumush ("S2" 1000 metr: Muhammadali Mirismanov, Diyorbek Mamatqulov, "S1" 500 metr: Muhammadali Mirismanov, "K1" 500 metr: Arina Tanatmisheva) hamda bronza

("S2" 500 metr: Kamoliddin Rahmatullayev, Azimjon Soliboldiyev, "K1" 1000 metr: Olesksandr Zarubin, "S2x" 500 metr (miks): Kamoliddin Rahmatullayev, Zarina Rustamova) medallariga sazovor bo'ldi.

Qilichbozlik:
vakilimiz bronza medali
sohibi

Kolumbiyaning Bogota shahrida qilichbozlikning shpaga yo'nalishi bo'yicha Gran-pri turniri bo'lib o'tdi.



Quvonarli, unda O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Vadim Anoxin bronza medalni qo'lga kiritdi. Hamyurtimiz saralash bosqichida Isroil, Gonkong, Italiya, Chexiya vakillarini

mag'lubiyatga uchratdi. Biroq yarimfinalda qozog'istonlik Ruslan Kurbanovga 14:15 hisobida imkoniyatni boy berdi va musobaqani uchinchi o'rin bilan yakunladi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston davlat drama teatrida yozuvchi Said Ahmadning "Ufq" asari asosida sahnalashtirilgan spektaklning premyerasi bo'lib o'tdi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.00 Topshirildi — 02.05 1 2 3 4 5 6